AYRIM UMUMTA'LIM FANLARIDAN O'QUV DASTURLARI
(*O'quv maqsadlari va fan mazmuni*)

11-Jahon tarixi fanining o'quv maqsadlari va fan mazmuni

11-sinf (34 soat)		
T/r	**BOB VA MAVZULAR**	**O'QUV MAQSADLARI**
1.	**XX ASR OXIRI - XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA DUNYO MAMLAKATLARI** (XX asr oxiri – XXI asrning birinchi choragida xalqaro munosabatlar. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida demokratik inqiloblar va sotsialistik lagerning parchalanishi. Sovet respublikalarida mustaqillikning e'lon qilinishi va SSSRning parchalanishi.) (3 soat)	• 1980-yillar oxiri – 1990-yillar boshlarida xalqaro munosabatlarda yuz bergan tub o'zgarishlar haqida ma'lumot berish va uni izohlash; • Xalqaro munosabatlarda Xitoy va Hindiston davlatlari rolining ortib borishini sababini tushunish va sharhlash; • "Sovuq urush" va "ikki qutbli dunyo" modelining barham topishi, "ko'p qutbli dunyo" modelining vujudga kelish sabablarini aytib berish va bugungi kun bilan bog'lash; • SHHT, BRIKS va boshqa xalqaro tashkilotlarning maqsadni tushunish, o'xshashlik va farqlarini sanab o'tish va tahlil qilish; • Turkiy davlatlar sammitining tashkil topishi sabablarini bilish va bugungi kundagi faoliyati haqida tahlil qilish; • Xalqaro terrorizm muammosining sabab va oqibatlarini ko'rsatish va uning insoniyatga salbiy ta'siri haqida xulosa chiqarish; • Afg'oniston, Iroq, Suriya, Ukraina va Yaqin Sharqdagi muammolarni kelib chiqish sabablarini o'rganish, munosabat bildirish va o'z fikrini himoya qilish; • AQSh – Rossiya munosabatlarini mazmunini ochib berish, ularning dunyo siyosatidagi o'rnini baholash; • Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida demokratik inqiloblar va sotsialistik tizimning parchalanish sabab va oqibatlarini tahlil qilish, ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash; • Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari XX asr oxiri – XXI asr boshlarida sodir bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarni ko'rsatish va bugungi kundagi ahamiyatini asoslash; • Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining integratsiyalashuv jarayonini tushuntirish va uning oqibatlarini tahlil qilish; • Postsotsialistik taraqqiyot muammolarini o'rganish ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash va tahlil qilish; • Sovet respublikalarida mustaqillik uchun kurashning kuchayishining asosiy omillarini aniqlash va fikrini dalillash; • Demokratik kuchlarning faollashuviga olib kelgan sabablarni tushuntirish, dalillar keltirish; • 1991-yil avgust inqirozi (GKChP)ning yuzaga kelish sabab va oqibatlarini aniqlash;

		• Novo-Ogaryovo yig‘ilishi va barqarorlashish jarayonining boshlanish jarayonining tarixiy ahamiyatini tushunish va mazmunini ochib berish; • SSSRning tarqalishiga olib kelgan siyosiy, iqtisodiy va milliy omillarni bilish, jarayon bosqichlarini o‘rganish va dalillarga asoslanib fikr bildirish; • Sobiq sovet respublikalarida mustaqillikning e’lon qilinishining tarixiy jarayonini mantiqan asoslash, hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni topish; • SSSRda qayta qurish siyosati va uning inqirozini sabab va oqibatlarini aniqlash va xulosa chiqarish; • Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH)ning tashkil topishi va faoliyatini tahlil qilish, o‘zgarishlar sabablarini mantiqan asoslash.
2.	**XX ASR OXIRI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA MDH MAMLAKATLARI** (Rossiya Federatsiyasi. Ukraina, Belarussiya va Moldova respublikalari. **BSB-1.** Kavkazorti davlatlari. Markaziy Osiyo davlatlari.) **(5 soat)**	• Millatlararo munosabatlarning rivojlanishiga ta’sir etgan omillarni aniqlash va dalillarga asoslanib fikr bildirish; • Rossiyada barqarorlashuv jarayonining boshlanishiga sabab bo‘lgan siyosiy va iqtisodiy omillarni kelib chiqishi va sabablari haqida fikr yuritish; • Jamiyatning siyosiy hayotida yuz bergan muhim o‘zgarishlarni afzallik va kamchiliklarini aniqlash; • Tashqi siyosat jarayonlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish; • O‘zbekiston va Rossiya munosabatlarini mazmunini ochib berish, o‘z munosabatini bildirish; • Rossiya Federatsiyasida ijtimoiy hayot va iqtisodiy islohotlarni mohiyatini tushunish, tahlil qilish; • ijtimoiy-siyosiy hayotning faollashuvi va milliy-ozodlik harakatining kuchayish sabab va oqibatlarini aniqlash; • Belarus Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishini mazmunini tushunish; • BSSRda mustaqillikning e’lon qilinishining siyosiy va tarixiy shart-sharoitlarini tahlil qilish va davr bilan bog‘lab tushuntirish; • Moldova Respublikasining mustaqillik e’lon qilinishiga olib kelgan omillarni tahlil qilish va davr bilan bog‘lab tushuntirish; • Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning xalq turmush darajasiga ta’sirini tushuntirib berish, muhokama qilish; • 1980-yillar oxiri – 1990-yillarda Ukrainada Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolari tahlil qilish, xulosa chiqarish; • O‘zbekiston va Ukraina, Belarussiya va Moldova munosabatlarini tahlil qila olish va munosabat bildirish; • Armaniston davlat mustaqilligining e’lon qilinishini dalillar asosida ko‘rsatish va tushunish; • Ozarbayjon va Gruziya davlat mustaqilligining tiklanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni topish, sabab va oqibatlarini aniqlash;

		• Ozarbayjonning iqtisodiy rivojlanish sabablarini, uning ahamiyatini muhokama qilish, jarayon bosqichlarini o‘rganish; • Gruziyadagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni tahlil qilish va munosabat bildirish; • O‘zbekiston va Kavkazorti davlatlari munosabatlarini bilish, natijalari haqida xulosa chiqarish; • Armanistondagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni tahlil qila olish va munosabat bildirish; • Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston davlat mustaqilligining e’lon qilinishini izohlash va voqealarni o‘zaro bog‘lay olish; • Ijtimoiy hayot tarzini tahlil qilish va o‘xshash va farqli tomonlarini tasniflash; • Qozog‘istondagi siyosiy va iqtisodiy islohotlarni sharhlash va oqibatlariga munosabat bildirish; • Qirg‘iziston Respublikasidagi ijtimoiy hayot va siyosiy jarayonlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish; • Tojikistondagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish; • Turkmanistonda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish masalalarini tahlil qilish va xulosa chiqarish • Markaziy Osiyo davlatlar o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy, transport va savdo sohalarida integratsiyani rivojlantirish, madaniy, ilmiy va ta’lim sohalarida tajriba almashish, xalqaro maydonda o‘zaro qo‘llab-quvvatlashini tushunish, fikrini asoslash va dalillar keltirish; • O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari munosabatlarini sharhlash, muhokama qilish va munosabat bildirish.
3.	**BOB. XX ASR OXIRI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA AQSH VA G`ARBIY EVROPA MAMLAKATLARI** (G‘arb mamlakatlarida integratsiyalashuv jarayonlarining jadallashuvi. Yevropa Ittifoqi (YI) va AQSH munosabatlari. Amerika Qo‘shma Shtatlari. Germaniya Federativ Respublikasi. Buyuk Britaniya, **CHSB-1** Fransiya, Italiya)	• Qoloq mintaqalarni rivojlantirish umumevropa dasturlarini maqsadi va ahamiyatini izohlash; • Yevroatlantika mamlakatlarida yagona iqtisodiy siyosat modelining shakllanib borishini tushunish va muhokama qilish; • Maastrixt kelishuvlari va “ichki chegaralarsiz makon”ning vujudga kelishini ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish va fikrini asoslash; • Iqtisodiy muammolar ijtimoiy hayotga ta’sirini aniqlash va sabab va oqibatlarini tahlil qilish; • Rivojlanish va hayot darajasining bir-biriga yaqinlashuvi sabab va oqibatlarini aniqlash; • AQShning ijtimoiy va iqtisodiy hayoti qanday shakllanganini tushunish va izohlay olish; • AQSHning ichki va tashqi siyosati haqida ma’lumot bera olish, dalillar asosida tahlil qilish va xulosa chiqarish; • O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari munosabatlarining mazmunini ochib berish; • GFR va GDRning birlashishi sabablari va omillarini tushunish, o‘zgarish sabablarini tahlil qilish; • Iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlay olish, xulosa chiqarish; • Ichki va tashqi siyosatini tahlil qilish va xulosa chiqarish; • O‘zbekiston va Germaniya Federativ Respublikasi munosabatlarini mazmunini yoritish va ahamiyatini tushuntirish; • Buyuk Britaniya XX asr oxirida iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar holati haqida fikr bildirish va asoslash; • Ichki va tashqi siyosatining mohiyatini sharhlay olish va oqibatlaridan xulosa chiqarish;

	(7 soat)	• Yevropa Ittifoqidagi ishtiroki natijalarini muhokama qilish, o‘zgarishlar sabablarini tahlil qilish; • O‘zbekiston va Buyuk Britaniya mazmunini yoritish va ahamiyatini tushuntirish; • Yevropa Ittifoqida yetakchilik uchun kurash siyosatini muhokama qila olish; • XX asr oxirlarida Fransiyada ijtimoiy hayot va iqtisodiy rivojlanishni tahlil qila olish; • O‘zbekiston va Fransiya mazmunini yoritish va ahamiyatini tushuntirish; • Italiyada ijtimoiy hayot va iqtisodiy rivojlanishni tushuntirib berish; • Italiya XXI asrning birinchi choragida industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o‘tishning boshlanishi haqida ma’lumot berish va oqibatlarini tahlil qilish; • Iqtisodiy muammolarni tahlil qilish va xulosa chiqarish; • O‘zbekiston va Italiya munosabatlarini mazmunini yoritish va ahamiyatini tushuntirish.
4.	**XX ASR OXIRI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA OSIYO, AFRIKA VA LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI** (Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlar. Xitoy Xalq Respublikasi. Yaponiya va Koreya. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari. Hindiston Respublikasi. Turkiya Respublikasi. **BSB-2. Loyiha ishi taqdimoti.** Eron Islom Respublikasi. Pokiston va Afg‘oniston. Suriya va Iroq. Ko‘rfaz arab mamlakatlari Falastin va Isroil: Ikki xalq uchun ikki davlat. Lotin Amerikasi mamlakatlari. Afrika mamlakatlari.)	• Turkiy davlatlar tashkiloti haqida ma’lumot berish va mohiyatini tushunish; • O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotidagi o‘rni haqida ma’lumotlar bilan tanishtirish; • Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida demografik holatni izohlash; • Mamlakatlarda Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘llarini tushuntirish; • Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha uchta guruhga ajratish; • Janubi-Sharqiy Osiyo va Tinch okeani havzasida yetakchilik uchun kurashish sababini aytib berish, oqibatlarini tahlil qilish; • Xitoy Xalq Respublikasining xalqaro jamiyatda tutgan o‘rni haqida fikr bildirish va mohiyatini tushunish; • “Xitoy iqtisodiy mo‘jizasi”ni mohiyatini tushunish va ahamiyatini izohlash; • XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Xitoydagi ijtimoiy iqtisodiy islohotlar jarayonini tahlil qilish, fikrini dalillash; • O‘zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi munosabatlari haqida ma’lumot bera olish, mazmunini yoritish va ahamiyatini tushuntirish; • XX asr oxiri va XXI asrning birinchi choragida Yaponiyaning ijtimoiy hayoti, postindustrial iqtisodiy modelining shakllanishi haqida ma’lumot berish va oqibatlarini tahlil qilish; • Koreya yarim orolining zamonaviy muammolarini muhokama qila olish, kelib chiqish sabablari haqida fikr yuritish; • XX asr oxiri – XXI asrning birinchi choragida Koreya Respublikasi va Koreya Xalq Demokratik Respublikasi ijtimoiy va siyosiy hayotini tahlil qilish, afzalliklari va kamchiliklari haqida fikr bildirish; • O‘zbekiston - Yaponiya va Koreya munosabatlari haqida ma’lumot bera olish, mazmunini yoritish va ahamiyatini tushuntirish; • XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Janubi-Sharqiy Osiyo: Singapur, Vyetnam, Kambodja, Malayziya, Indoneziya, Filippin mamlakatlarining tinch taraqqiyot yo‘li, ijtimoiy, iqtisodiy islohotlar haqida o‘z fikrini bayon qilish, qo‘llab quvvatlash yoki rad etish;

	(14 soat)	• Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi “Osiyo yo‘lbarslari”, “yangi industrial davlatlar” iborasini sharhlab bera olish, mohiyatini asoslash; • O‘zbekiston va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari munosabatlarini haqida ma’lumot berish hamda tahlil qila olish; • 1990-yillarda Hindiston davlati haqida o‘z fikrini bayon qilish; • Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarini tahlil qila olish, xulosa chiqarish; • 1990-yillardagi iqtisodiy rivojlanish yutuqlarini muhokama qila olish va dalillar keltirish; • Hindiston–Pokiston munosabatlarini sabab va oqibatlarini tahlil qila olish, munosabat bildirish, mohiyatini tushunish; • Hindistonning SHHT va BRIKSdagi faoliyatini tahlil qila olish; • O‘zbekiston va Hindiston Respublikasi munosabatlarini mazmunini yoritish va ahamiyatini tushuntirish; • 1990-yillarda Turkiyadagi ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni mohiyatini tushunish va oqibatlarini tahlil qilish; • XXI asrda Turkiyaning siyosiy rivojlanishini tahlil qila olish; • Turkiyaning tashqi siyosatini o‘rganish, xalqaro maydondagi ahamiyatini baholash va xulosa qilish O‘zbekiston va Turkiya Respublikasi munosabatlari mazmunini yoritish va ahamiyatini tushuntirish; • Ijtimoiy hayot haqida ma’lumot berish; • Eronda siyosiy va iqtisodiy hayotning barqarorlashuvini tahlil qilish va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash; • O‘zbekiston va Eron Islom Respublikasi munosabatlari mazmunini yoritish va ahamiyatini tushuntirish; • Pokistonda ijtimoiy va siyosiy hayoti haqida ma’lumot berish; • Pokistonning tashqi siyosati haqida ma’lumot berish va tahlil qilish; • O‘zbekiston - Pokiston munosabatlari haqida ma’lumot bera olish. va ahamiyatini tushuntirish; • Afg‘onistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va rivojlanishi haqida fikr bildirish, sabab va oqibatlarini tahlil qilish; • Afg‘oniston Islom Respublikasining e’lon qilinishi sabablarini tahlil qila olish; • O‘zbekiston va Afg‘oniston munosabatlari mazmunini yoritish va ahamiyatini tushuntirish; • 1990-yillari Suriyada ijtimoiy hayot rivojlanishi haqida ma’lumot berish; • “Arab bahori”ning Suriyaga ta’sirini sabab va oqibatlarini tahlil qilish va xulosa chiqarish; • “O‘zbekiston tomonidan amalga oshirilgan “Mehr-1, 2, 3, 4,5” insonparvarlik operatsiyalari haqida ma’lumot bera olish; • Iroqning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma’lumot berish va tahlil qilish; • Iroqdagi siyosiy muammolari sabablarini va oqibatlarini tahlil qilish va xulosa chiqarish; • Xalqaro maydondagi tashqi siyosatini tahlil qilish va xulosa chiqarish;

		• Bahrayn, Quvayt, Ummon, Qatar, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari haqida ma’lumotlar bera olish; • Fors ko‘rfazi arab mamlakatlari hamkorlik kengashi (GCC) faoliyatining mohiyatini tushunish va ahamiyatini tahlil qilish; • Turizm, xalqaro moliya sohalari va zamonaviy texnologiyalarni vujudga kelish sabablarini aytish, afzalliklari va kamchiliklarini baholay olish; • XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Fors ko‘rfazi arab mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holati, jahon neft sanoatidagi o‘rnini baholash va tahlil qilish; • Fors ko‘rfazi arab mamlakatlari va O‘zbekiston bilan munosabatlarini mazmunini yoritish va ahamiyatini tushuntirish; • XX asr oxiri – XXI asrning birinchi choragida Falastin va Isroil ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma’lumot berish va tahlil qilish; • Yaqin Sharq bo‘yicha Falastin–Isroil muammosining sabab va oqibatlarini tahlil qilish, hozirgi holati va dunyo hamjamiyatining munosabatini tahlil qilish; • O‘zbekiston tomonidan Falastin xalqiga ko‘rsatilgan gumanitar yordam haqida ma’lumot bera olish; • XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlari: Kuba, Argentina, Braziliya, Chili, Meksika haqida umumiy ma’lumot berish va tahlil qilish; • Braziliyadagi ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy hayot haqida fikr bildirish va xulosa qilish; • Meksikada modernizatsiyalashning islohotchilik varianti davom ettirilishi sababini aniqlash va tahlil qilish; • Chili – modernizatsiyaning neokonservativ variantini mohiyatini tushunish; • Argentinada ijtimoiy hayoti, ichki va tashqi siyosatini tahlil qilish va xulosa chiqarish; • Kuba ijtimoiy hayoti, ichki va tashqi siyosatini tahlil qilish va munosabat bildirish; • Braziliyada ijtimoiy hayoti, ichki va tashqi siyosatini tahlil qilish va afzal va kamchiliklarini asoslash; • O‘zbekiston - Lotin Amerikasi mamlakatlari: Kuba, Argentina, Braziliya, Chili, Meksika munosabatlari mazmunini yoritish va ahamiyatini tushuntirish; • XX asr oxiri – XXI asrning birinchi choragida Misr mamlakati haqida ma’lumot berish, afzal va kamchiliklarini aniqlash; • G‘arbiy Misrda “Yangi vodiy” loyihasini sabab va oqibatlarini tahlil qilish; • Liviyada M.Kaddafiy rejimi va uning ag‘darilish sabab va oqibatlarini tahlil qilish, xulosa chiqarish; • Shimoliy Afrika Respublikasidagi islohotlar va ularning natijalarini tahlil qilish, xulosa chiqarish; • O‘zbekiston va Afrika mamlakatlari munosabatlari mazmunini yoritish va ahamiyatini tushuntirish.

5.	**YANGI MING YILLIK BOSHLARIDA JAHON SIVILIZATSIYA MUAMMOLARI** (XX asr oxiri – XXI asrning birinchi choragida globallashuv muammolari, harbiy, ekstremistik va ekologik xavf-xatarlar. XX asr oxiri – XXI asrning birinchi choragida barqaror rivojlanish va etno-ijtimoiy muammolar. **CHSB – 2.** XX asrning oxiri – XXI asrning birinchi choragida ilmiy-texnik taraqqiyot. Ilm-fan rivoji, adabiyot va san'at.) (5 soat)	• XX asr oxiri – XXI asrning birinchi choragida globallashuv muammolari, harbiy, ekstremistik va ekologik xavf-xatarlar haqida ma'lumot berish, tahlil qilish va oqibatlaridan xulosa chiqarish; • Siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi globallashuv muammolari haqida ma'lumotni tahlil qila olish va munosabat bildirish; • Tabiatni himoya qilish bo'yicha davlatlar tomonidan olib borilayotgan tadbirlarni samaradorligini baholash va dalillar keltirish; • Ekstremizm va terrorizm muammolari sabab va oqibatlarini tahlil qilish, muhokama qilish va xulosa chiqarish; • Atrof muhitni himoya qilish va taraqqiyot bo'yicha Rio-de-Janero konferensiyasi mohiyatini tushunish va tahlil qilish; • Insoniyatning global muammolarini tasniflash, muammolarni yechishga takliflar berish; • Barqaror xavfsiz rivojlanish va xalqaro aloqalarni tahlil qilish va dalillar keltirish; • XX asr oxiri – XXI asrning birinchi choragidagi etno-ijtimoiy muammolarning sabab va oqibatlarini aytib bera olish; • Etno-ijtimoiy munosabatlar va ularga migratsion jarayonlarning ta'sirini muhokama qilish, ularning kelib chiqish sabablarini va oqibatlarini tahlil qilish; • Iqtisodiy tengsizlik muammolari hamda irqchilik va irqiy kamsitilishning kelib chiqish sabablarini va oqibatlarini tahlil qilish va qarshi kurashish uchun takliflar berish; • Qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar hamda adabiyot va san'atdagi yangi yo'nalishlar haqida ma'lumot berish va o'zgarish sabablarini tahlil qilish; • Milliy madaniyatlar rivojlanishi muammolarini tushunish va muammolarga yechib berish; • XX asr oxiri – XXI asrning birinchi choragida tabiiy fanlar va tibbiyot rivojlanishini tahlil qilish; • XXI asrda ommaviy madaniyat muammolarini vujudga kelish sabablarini muhokama qilish va xulosa chiqarish; • Iqtisodiy nazariyalar va ularning taraqqiyotga ta'sirini izohlash; • Ilmiy-texnik inqilob va uning natijalarini tahlil qilish va xulosa chiqarish; • Hozirgi kunda jahonda bo'layotgan voqealarni tahlil qilish va umumlashtirish; • Yil davomida o'tilgan mavzularni qisqacha takrorlash.

11-sinf O‘zbekiston tarixi fanining mavzulari va o‘quv maqsadlari

11-sinf (34 soat)		
T/r	**BOB VA MAVZULAR**	**O‘QUV MAQSADLARI**
1.	**MILLIY DAVLATCHILIKNING TIKLANISHI** (Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimi. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi. **BSB – 1.** O‘zbekistonda tub islohotlar. Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari. Qurolli kuchlar va milliy armiya.) (10 soat)	• Mustaqillik asoslarining yaratilishi haqida ma’lumot berish hamda sharhlash; • Mustaqillikning e‘lon qilinishi haqida ma’lumotlar berish va uni izohlash; • Sovet Ittifoqida davlat to‘ntarishi sodir etilishi sabab va oqibatlarini tahlil qilish va munosabatbildirish; • O‘zbekiston SSR Prezidenti mamlakatimizning to‘la mustaqilligi yo‘lida tamal toshiniqo‘yganligi haqida dalillar keltirish hamda tahlil qilish; • O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi “O‘zbekistonning davlat mustaqilligi to‘g‘risida”giqonun loyihasini tayyorlash jarayonining sabab va oqibatlarini aytib berish va tahlil qilish; • Davlat ramzlarining qabul qilinish tarixi haqida ma’lumotlar berish va mohiyatini tushunish; • Prezidentlik institutining shakllanishi haqida ma’lumot berish va ahamiyatini tushunish; • O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonuni haqida ma’lumotlar berish va sharhlash, uning qabul qilish jarayonini tahlil qilish; • Konstitutsiyamizning yaratilishi jarayonining tarixiy ahamiyatini tushuntirish. • O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga muqobillik asosida saylov jarayonlarini sharhlash; • Davlat boshqaruvidagi islohotlar haqida tushunchaga ega bo‘lish; • O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyati va ahamiyati haqida muhokama qilish vaizohlash; • O‘zbekiston davlat hokimiyati tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarigabo‘linishi sabablarini tushuntirish va mohiyatini anglash; • Sud-huquq islohotlari haqida muhokama qilish va izohlash; • O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi haqida ma’lumot berish vatahlil qilish; • O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining yuzaga kelishi sabablarini tahlil qilish va ahamiyatinimuhokama qilish; • O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan partiyalar haqida ma’lumot berish va tanqidiy tahlil qilish, maqsad va natijalarini solishtirish; • O‘zbekiston fuqarolik jamiyatlarining istiqbollari haqida ma’lumot berish; • Harakatlar strategiyasining e’lon qilinishi haqida tushuncha berish; • “O‘zbekiston-2030” strategiyasi haqida ma’lumot berish va tahlil qilish;

		• O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga muqobillik asosida saylov tizimi jarayonlarini tahlil qilish; • “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida» va «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonunining tarixiy ahamiyatini sharhlash; • Markaziy saylov komissiyasining faoliyati, maqsad va vazifalari haqida ma’lumot berish,va muhokama qilish. • O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari haqida fikr bildirish, dalillar keltirish; • O‘zbekistonda ichki ishlar idoralarining tiklanishi haqida ma’lumot berish; • O‘zbekistonda milliy xavfsizlik strategiyasining shakllanishini tahlil qilish; • “O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o‘quv muassasalari to‘g‘risida”gi qarorning tarixiy ahamiyatini asoslash va ahamiyatini anglash.
2.	**IQTISODIY ISLOHOTLAR VA IJTIMOIY SIYOSAT** (Milliy iqtisodiyotning yaratilishi. Mamlakat ishlab chiqarish salohiyati va jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi. Ijtimoiy siyosat va uning amalga oshirilish bosqichlari. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik. **CHSB – 1.** **(Loyiha ishi mavzusini baholash vae’lon qilish))** (6 soat))	• Iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari haqida ma’lumot berish; • O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li, taraqqiyotning “O‘zbek modeli” mohiyatini tushunish, natijalarini tahlil qilish; • Bozor infratuzilmasining shakllanishi sabablarini tushunish va tahlil qilish; • Milliy valyutaning qabul qilinishi jarayonining tarixiy ahamiyatini asoslash va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslash; • Zamonaviy transport-kommunikatsiya tizimining shakllanishini izohlash va dalillar keltirish; • O‘zbekiston temir yo‘llari, Milliy avtomobilsozlik sanoatiga asos solinishi jarayonining tarixiy ahamiyatini asoslash, jarayon bosqichlarini o‘rganish; • Qishloq xo‘jaligi sohasidagi islohotlar haqida ma’lumot berish; • Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirishni tahlil qila olish jarayon bosqichlarini o‘rganish; • Tadbirkorlarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, ularni rag‘batlantiradigan mexanizmning yaratilishi sabablarini tushuntirib berish, jarayon bosqichlarini o‘rganish; • Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari haqida dalillar keltirish; • Erkin va maxsus iqtisodiy zonalar yaratilishi hamda ularning ahamiyati izohlash; • Jahon iqtisodiy tizimga integratsiyalashuv haqida muhokama qilish; • Mustaqillik arafasida ijtimoiy-iqtisodiy va demografik vaziyatlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish; • Ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi jarayon bosqichlarini o‘rganish, tahlil qilish; • Sog’liqni saqlash tizimini isloh qilinishi va zamonaviy tibbiyotning shakllanishi haqida ma’lumot berish; • Keksalarni himoya qilish hamda onalar va bolalar salomatligi muhofazasi borasida olib borilayotgan ishlarning ahamiyatini tushunish va natijalarini tahlil qilish, dalillar keltirish;

		• Millatlararo totuvlik g‘oyasini sharhlash, mohiyatini anglash va munosabat bildirish; • Ma’rifat va diniy bag’rikenglik haqida muhokama qilish; • O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar jarayonlarini tahlil qilish; • Milliy-madaniy markazlar haqida ma’lumot berish va dalillar keltira olish; • O‘zbekistonda umumxalq bayramlarini o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilish va xulosa chiqarish; • Ramazon hayiti, Qurbon hayiti bayramlari haqida nishonlanish sabablari mantiqan asoslash va fikr bildirish; • Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunini mohiyatini tushunish; • Maktabgacha ta’lim tizimining takomillashuvi haqida ma’lumot berish; • Oliy ta’lim tizimi haqida ma’lumotlar berish, afzal va kamchiliklarini aniqlash; • Oliy ta’lim va undan keyingi ta’limning rivojlanish bosqichlarini sharhlay olish,munosabat bildirish, asosli takliflar berish; • “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mohiyatini muhokama qilish; • Yangi alifbo yaratilish jarayonining tarixiy ahamiyatini asoslash; • Majburiy ta’lim, O‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’lim tizimining tashkil etilishi hamda faoliyatini tahlil qilish, munosabat bildirish.
3.	**TA’LIM VA ILM-FAN** (Ta‘lim tizimidagi islohotlar, Ilm-fanda erishilgan yutuqlar. Jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati.) (6 soat)	• Mustaqillikning dastlabki yillarida ilm-fanning rivojlanishi haqida ma’lumotlar berish; • Oliy attestatsiya komissiyasi faoliyatini sharhlash; • Fanlar akademiyasi faoliyati haqidagi ma’lumot berish va tahlil qilish; • Ilm-fan va ta’lim integratsiyasi haqida ma’lumotlarni tahlil qilish; • Jismoniy tarbiya va sportni qo‘llab-quvvatlovchi tizimning yaratilishi haqida ma’lumotlar berish; • Uch bosqichli sport o‘yinlari hamda boshqa turdagi sport turlarini sharhlay olish; • O‘zbek sportchilarining olimpiada o‘yinlaridagi ishtiroki haqida muhokama qilish; • O‘zbekistonda yoshlar tashkilotlari haqida ma’lumot berish; • Yoshlar tashkilotining vujudga kelish sabablarini aytish; • “O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi” faoliyatini afzal va kamchiliklarini aniqlash; • “Zulfiya”, “Nihol” nomidagi davlat mukofotini tashkil etishni maqsadlarini muhokama qilish va tahlil qilish.
4.	**MA’NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT** (Ma‘naviy va tarixiy merosga munosabat, Buyuk ajdodlar xotirasining tiklanishi.	• Ma’naviy va tarixiy merosga munosabatning o‘zgarishi haqida muhokama qilish; • Buyuk ajdodlarimiz nomidagi davlat mukofoti ta’sis etilishi mohiyatini, maqsadlarini tushunish va tahlil qilish; • Amir Temur tavalludining 660 yilligining nishonlanish jarayonining tarixiy ahamiyatini muhokama qilish va xulosa chiqarish; • Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an’analarning tiklanishi. haqida dalillar keltirish va tahlil qilish;

	BSB-2. Loyiha ishi taqdimoti. Milliy va diniy qadriyatlarning qayta tiklanishi. Madaniyat va san’at taraqqiyoti.) (4 soat)	• Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xo‘ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Al-Farobiy, Ibn Sino, Al-Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburkabi ko‘plab ajdodlarimizning milliy va ma’naviy merosi xalqimizga qaytarilishi mohiyatinianglash, qo‘llab quvvatlash va xulosa chiqarish; • Loyiha ishi taqdimoti; • Navro‘z bayrami timsolida milliy qadriyatlarning tiklanishi haqida ma’lumot berish; • Milliy va diniy qadriyatlarimiz o‘zaro chambarchas bog‘liqligi haqida dalillar keltirish va fikrini asoslash; • Ro‘za hayitini dam olish kuni deb e’lon qilinish jarayonining tarixiy ahamiyatini asoslay olish. • Islom madaniyati poytaxtlari haqida tahlil qilish; • Islom sivilizatsiyasi markazi haqida ma’lumot berish; • Ma’naviyat maskanlari va teatr haqida ma’lumot berish; • Musiqa va raqs san’ati hamda “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalining mohiyatini tushunish, jahondagi o‘rnini e’tirof etish; • Tasviriy san’at va badiiy adabiyotni tahlil qilish; • Muzeylar -tarix ko‘zgusi haqida muhokama qilish.
5.	**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SIYOSATI VA IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARI** (O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining shakllanishi va ustuvor yo‘nalishlari. Markaziy Osiyo - O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi. O‘zbekistonning Rossiya, Xitoy, AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o‘zaro munosabatlari. O‘zbekistonning Yaponiya, Koreya, Hindiston va Turkiya davlatlari bilan aloqalari)	• O‘zbekistonning geosiyosiy holati haqida ma’lumotlar berish va dalillar keltirish; • Markaziy Osiyo mintaqasida O‘zbekistonning o‘rnini sharhlash va dalillar keltirish; • O‘zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosati asoslarining ishlab chiqilishi sabab va oqibatlarni tahlil qilish va munosabat bildirish; • Tashqi siyosatning asosiy tamoyillarini mohiyatini tahlil qilish va jarayonlar bosqichini o‘rganish. • Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi sabablarini tushunish va mohiyatini muhokama qilish; • Qo‘shni davlatlar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘oniston davlatlar bilan O‘zbekistonning hamkorligi haqida ma’lumotlar berish va xulosa chiqarish; • O‘zbekistonning markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi aloqalari o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr bildirish va xulosa chiqarish; • O‘zbekiston Rossiya Federatsiyasi bilan o‘zaro hamkorlik masalalari haqida ma’lumotlar berish va jarayonlar bosqichini o‘rganish; • O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida munosabatlarining olib borilish jarayonlar bosqichini o‘rganish va tahlil qilish; • O‘zbekiston bilan Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasida davlatlararo aloqalarning vujudga kelish sabablarini aytish jarayonlar bosqichini o‘rganish; • O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan aloqalari haqida muhokama qilish;

	(4 soat)	• O‘zbekiston o‘zining sharqiy yo‘nalishdagi tashqi siyosatida Osiyo qit’asining Yaponiya, Hindiston va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlari bilan davlatlararo munosabatlar va manfaatli hamkorlik aloqalarini mustahkamlanishi haqida ma’lumotlar berish, jarayonlar bosqichini o‘rganish; • O‘zbekiston Respublikasi Osiyo qit’asining Yaponiya, Hindiston,Turkiya va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlari bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarning rivojlanish jarayonlarini sharhlay olish va tahlil qilish.
6.	**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIK ALOQALARINING RIVOJLANISHI** (O‘zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti: o‘zaro hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari. O‘zbekistonning mintaqaviy tashkilotlar doirasida ko‘p tomonlama hamkorligi. **CHSB-2.** **Yakuniy dars**) (4 soat)	• O‘zbekiston Respublikasining BMTga qabul qilinishi va mamlakatimiz jahon hamjamiyatining teng huquqli a’zosi bo‘lishi haqida ma’lumotlarni bilish va tahlil qilish; • O‘zbekiston davlatining birinchi rahbari I.Karimov tomonidan BMT minbarida ilgari surilgan takliflar, BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ilk bor ma’ruza qilishi, Markaziy Osiyoni yadrosiz zona deb e’lon qilish, Orol muammosi bo‘yicha BMTning maxsus komissiyasini tuzish haqida ma’lumotni bayon qila olish va xulosa chiqara olish; • O‘zbekiston va BMT o‘zaro hamkorligining yangi bosqichi haqida ma’lumot berish; • O‘zbekiston BMTning bir qator ixtisoslashtirilgan muassasalari, jumladan Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon savdo tashkiloti (JST), BMTning Yevropa bo‘yicha iqtisodiy komissiyasi (EIK), BMT savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi guruhi kabilar bilan keng ko‘lamli hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yilishini yoritib berish va tahlil qilish; • Transchegaraviy daryolar boshqarishda xalqaro hamkorlik zarurligini tushuntirish, mohiyatini asoslash; • Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlik o‘rnatish masalasini izohlash va dalillar keltirish; • Ekologik muammolarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy oqibatlarini tahlil qilish, tanqidiy munosabat bildirish; • Tashkilotining ta’lim, fan va madaniyat masalalari haqida ma’lumotlar berish va izohlash; • O‘zbekiston va YUNESKO o‘rtasidagi hamkorlik haqida ma’lumotlarni muhokama qilish va dalillash; • O‘zbekiston va YUNESKO o‘rtasidagi hamkorlikning bugungi holati va uni rivojlantirish istiqbollarini sharhlash. • Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tashkil topish sabablari, faoliyati haqida ma’lumot berish va xulosa chiqarish; • Toshkent, Ostona sammitlari haqida ma’lumotlar bera olish. MDH Nizomining mohiyatini tushunish va tahlil qilish; • Shanxay Hamkorlik Tashkiloti – submintaqaviy xalqaro tashkilotining vujudga kelish sabablarini sharhlash va faoliyatini tahlil qilish;

		• O‘zbekistonning Shanxay Hamkorlik Tashkiloti bilan aloqalarini tasniflash va jarayonlar bosqichini o‘rganish.